O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3969
2026 - yil 05 - Noyabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRINING BUYRUG‘I

Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi hamda “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq **buyuraman:**

1. Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va Oliy sudi bilan kelishilgan.

4. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran ikki oydan keyin kuchga kiradi.

Vazir
04-Sentabr 2026-yil
502 son

TASHPULATOV AZIZ ANVAROVICH

Kelishildi:

Oliy sud raisi
05-Avgust 2026-yil

MAXMUDOVA ROBAXON ANVAROVNA

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori
06-Iyul 2026-yil

YO‘LDOSHEV NIG‘MATILLA TO‘LQINOVICH

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2026-yil
4-sentabrdagi 502-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi
YO‘RIQNOMA

Mazkur Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan Yo‘l harakati qoidalarining (bundan buyon matnda Qoidalar deb yuritiladi) buzilishiga doir ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni (bundan buyon matnda ma’muriy ishlar deb yuritiladi) rasmiylashtirish, ko‘rib chiqish hamda jismoniy va yuridik shaxslarning ma’muriy ish hujjatlari bo‘yicha murojaatlarini ko‘rib chiqish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Yo‘riqnomada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

“Ma’muriy amaliyot” moduli – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti (bundan buyon matnda IIV JXD deb yuritiladi) Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining (bundan buyon matnda YHXX deb yuritiladi) Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (bundan buyon matnda YAAT deb yuritiladi) tarkibiga kiruvchi, Qoidalarning buzilishiga doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish, hisobga olish, ko‘rib chiqish va huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga (bundan buyon matnda huquqbuzar deb yuritiladi) nisbatan ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni shakllantiruvchi axborot tizimi;

“yagona darcha” tamoyili – YHXX huzuridagi Ma’muriy amaliyot markazi (bundan buyon matnda Markaz deb yuritiladi) va hududiy yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmalari ma’muriy amaliyot markazlari (bundan buyon matnda hududiy markazlar deb yuritiladi) tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga Qoidalarning buzilishiga doir ma’muriy ishlar bo‘yicha murojaatlarini (bundan buyon matnda murojaatlar deb yuritiladi) ko‘rib chiqishga oid davlat xizmatlarini bir nuqtada ko‘rsatish;

“eksterritoriallik” tamoyili – jismoniy shaxslarning yashash yoki turgan joyidan, yuridik shaxslarning joylashgan yuridik manzilidan qat’i nazar, istalgan hududiy markazlarga murojaat qilish usuli;

“open space” tamoyili – Markaz va hududiy markazlarga murojaat qilish maqsadida kelgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri va to‘siqsiz kirish imkonini beruvchi usul.

2. Qoidalarning buzilishiga doir ma’muriy ishlarni yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (bundan buyon matnda Kodeks deb yuritiladi) hamda mazkur Yo‘riqnoma va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi.

3. Jismoniy va yuridik shaxslarning Qoidalarning buzilishiga doir ma’muriy ishlar bo‘yicha murojaatlari “yagona darcha”, “eksterritoriallik” va “open space” tamoyillari asosida ko‘rib chiqiladi.

4. Qoidalarning buzilishiga doir ma’muriy ishlar, shu jumladan vazirlik va idoralar o‘rtasida Qoidalarning buzilishiga doir ma’muriy ishlarga oid ma’lumotlar almashinuvi YHXX YAATning “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali amalga oshiriladi.

“Ma’muriy amaliyot” moduli orqali ma’muriy ish hujjatlari va ish bo‘yicha ashyoviy (ashyoviy dalilning rasmiylashtirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumot), yozma hamda raqamli dalillar (bundan buyon matnda dalillar deb yuritiladi) sudlarga elektron shaklda yuboriladi.

5. Qoidalarning buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqishning vazifalari har bir ishning holatini o‘z vaqtida, har tomonlama, to‘la va obyektiv ravishda aniqlab chiqishdan, bu ishni qonunchilik hujjatlariga muvofiq holda hal etishdan, chiqarilgan qarorning ijrosini ta’minlashdan, shuningdek ma’muriy huquqbuzarlik sodir etish sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlashdan, huquqbuzarliklarning oldini olishdan, qonuniylikni mustahkamlashdan iboratdir.

6. Qoidalarning buzilishiga doir ma’muriy ishlar qonuniylikka qat’iy amal qilish asosida ko‘rib chiqiladi. Qoidalarning buzilishi uchun ta’sir choralarini qo‘llash chog‘ida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi vakolatli yuqori turuvchi organlar va mansabdor shaxslar tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib turilishi bilan, prokuror nazorati bilan, shikoyat berish huquqi va qonunchilikda belgilangan boshqa tartiblar bilan ta’minlanadi.

7. Ma’muriy ish hujjatlarini rasmiylashtirgan Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (bundan buyon matnda DYHXX deb yuritiladi) xodimi ushbu hujjatlardagi shaxsga, transport vositasiga va sodir etilgan qoidabuzarlikka doir ma’lumotlarning maxsus dasturiy ta’minot o‘rnatilgan mobil qurilmaga (bundan buyon matnda planshet deb yuritiladi) yoki qog‘oz shakldagi ma’muriy ish hujjatlariga to‘g‘ri kiritilishiga shaxsan javobgar hisoblanadi.

8. Ma’muriy ishning hujjatlarini qog‘oz shaklida yuritish zarurati yuzaga kelganda, ushbu hujjatlar pdf formatda skaner (nusxa) qilingan holda “Ma’muriy amaliyot” moduliga planshet yoki kompyuter orqali elektron shaklda kiritiladi.

9. Qoidalarning buzilishiga doir ma’muriy ishlar DYHXXning quyidagi xodimlari tomonidan “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali elektron shaklda yuritiladi:

Qoidalarni buzgan shaxsga nisbatan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnomalarni rasmiylashtirish va ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan DYHXX xodimlari;

Markaz va hududiy markazlarning xodimlari.

10. Qoidalarning buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqishga vakolatli xodimlar o‘zlariga berilgan vakolatlar doirasida va faqat xizmat burchlarini bajarib turgan paytlardagina Kodeksda nazarda tutilgan ma’muriy jazolarni qo‘llashlari mumkin.

11. “Ma’muriy amaliyot” modulidagi ma’lumotlarni mazkur Yo‘riqnomaning 9-bandida nazarda tutilgan vakolatli xodimlar o‘rganish va ulardan foydalanish huquqiga ega.

12. “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali yuritiladigan ma’muriy ishlarning to‘g‘ri yuritilishini tekshirish va nazorat qilish Markaz hamda hududiy markazlarning mas’ul xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

2-bob. Qoidalarning buzilishiga doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish

13. Qoidalarni buzgan shaxslarga nisbatan huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o‘zida mazkur Yo‘riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq shaklda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnoma (bundan buyon matnda elektron shakldagi ma’muriy bayonnoma deb yuritiladi) DYHXX xodimi tomonidan planshet yoki kompyuter yordamida “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali rasmiylashtiriladi, bundan ma′muriy huquqbuzarlik maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etiladigan holatlar mustasno.

Rasmiylashtirilgan elektron shakldagi ma’muriy bayonnomani huquqbuzar, guvohlar, xolislar hamda jabrlanuvchilarga o‘zlarining elektron grafik imzosi yoki barmoq izi bilan tasdiqlash taklif etiladi.

Bunda elektron shakldagi ma’muriy bayonnoma “Fuqarolarning biometrik hujjatlari elektron tizimi” yoki daktiloskopik taqqoslash yoxud multibiometrik identifikatsiya qilish dasturlari (bundan buyon matnda identifikatsiya tizimlari deb yuritiladi) orqali ularning shaxsini aniqlagan holda elektron raqamli imzo yoki elektron grafik imzo hamda QR-kod (matritsali shtrix kod) bilan tasdiqlanadi.

14. Ma’muriy bayonnoma tuzish zarur bo‘lib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyda tuzish imkoni bo‘lmasa, ma’muriy bayonnoma DYHXX xodimi tomonidan yaqin oradagi ichki ishlar organlarida, transport vositalarini to‘xtash joylarida rasmiylashtirilishi mumkin.

15. Huquqbuzar, jabrlanuvchi, guvoh, xolis chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lsa, shuningdek identifikatsiya tizimlari yordamida ularning shaxsini aniqlashning imkoni bo‘lmasa, biroq ularning yonida ma’lumotlar bazasiga kiritilmagan chet el pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, DYHXX xodimi ushbu hujjatlardagi shaxsga doir ma’lumotlarni planshetga yoki kompyuterga kiritadi.

16. Sodir etilgan huquqbuzarliklar keyinchalik aniqlanganda, ma’muriy ishlar jabrlanuvchining arizasi bilan qo‘zg‘atilganda, huquqbuzar huquqbuzarlik faktini inkor etganda, sodir etilgan huquqbuzarlik uchun belgilangan sanksiyada jarima jazosidan boshqa turdagi ma’muriy jazo qo‘llanilishi nazarda tutilgan bo‘lsa (bundan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun belgilangan sanksiyada ma’muriy ogohlantirish jazosi qo‘llaniladigan holatlar mustasno), shuningdek, aloqa tarmog‘i mavjud bo‘lmagan hududlarda yoki ma’muriy ishni qog‘oz shaklda rasmiylashtirishni taqozo etadigan holatlarda mazkur Yo‘riqnomaning 2-ilovasiga muvofiq shaklda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnoma (bundan buyon matnda qog‘oz shakldagi ma’muriy bayonnoma deb yuritiladi) rasmiylashtirilib, pdf formatda skaner qilingan holda belgilangan tartibda “Ma’muriy amaliyot” moduliga kiritiladi, bundan ma′muriy huquqbuzarlik maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etiladigan holatlar mustasno.

17. Qog‘oz shakldagi ma’muriy bayonnoma blankasi qat’iy hisobdagi hujjat hisoblanadi va unga yozuvlar aniq holda ko‘k yoki qora rangli siyoh bilan qayd etiladi. Unda o‘chirib yozishga, (ilgari qayd etilgan yozuvlarni) tuzatishga hamda maxsus vositalar yordamida yo‘qotishga yo‘l qo‘yilmaydi.

18. Qoidalarni buzgan huquqbuzarlardan joyida jarima olish qat’iyan man etiladi.

19. Elektron yoki qog‘oz shakldagi ma’muriy bayonnomani rasmiylashtirishda huquqbuzarga quyidagilar tushuntiriladi:

ma’muriy bayonnoma elektron shaklda rasmiylashtirilayotganligi yoki ma’muriy bayonnoma qog‘oz shaklida rasmiylashtirilishining sabablari;

jarimani ixtiyoriy ravishda elektron to‘lov tizimlari, mobil ilovalar yoki bank kassalari orqali, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (bundan buyon matnda YIDXP deb yuritiladi)dagi shaxsiy kabineti yoki boshqa axborot tizimlari orqali to‘lashi mumkinligi;

huquqbuzar unga jarima solish to‘g‘risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab o‘n besh kun ichida jarima miqdorining ellik foizini yoki o‘ttiz kun ichida jarima miqdorining yetmish foizini ixtiyoriy ravishda to‘lagan taqdirda, u jarimaning qolgan qismini to‘lashdan ozod qilinishi, shuningdek, jarima solish to‘g‘risidagi qarorni ijro etishning soddalashtirilgan tartibi Kodeksning 332^1-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollarda qo‘llanilmasligi;

ma’muriy ish hujjatlari bilan tanishib chiqishga, izohlar berishga, dalillar keltirishga, o‘z iltimosini bayon etishga, ishni ko‘rib chiqish vaqtida yuridik yordamdan foydalanishga, o‘z ona tilida so‘zlashga va tarjimonning xizmatlaridan foydalanishga, ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berishga haqli ekanligi;

ma’muriy ish qachon va qayerda ko‘rilishi haqidagi mazkur Yo‘riqnomaning 3-ilovasiga muvofiq shakldagi elektron xabarnomaning YIDXPdagi yoki IIV JXD YHXXning mobil ilovasidagi shaxsiy kabineti orqali olinishi mumkinligi;

huquqbuzarning Kodeks, mazkur Yo‘riqnoma va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan huquq va majburiyatlari.

20. Elektron yoki qog‘oz shakldagi ma’muriy bayonnomani rasmiylashtirishda DYHXX xodimi huquqbuzarlik faktini tasdiqlash uchun planshet yoki boshqa mobil qurilmalardagi audio va videoyozuvlardan hamda fotosuratlardan, shuningdek boshqa ma’lumotlar (texnik ekspertiza xulosasi, o‘lchash vositalarining dalolatnomalari va boshqa maxsus hujjatlar)dan foydalanishi mumkin.

Huquqbuzarlik faktini tasdiqlash jarayonida boshqa mobil qurilmalardan foydalanilganda, DYHXX xodimi ushbu mobil qurilma to‘g‘risida ma’lumotni (qurilmaning turi, modeli va boshqa) va undan foydalanish zarurati to‘g‘risida tushuntirish berishi va huquqbuzarni ogohlantirishi lozim (maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish moslamalari bundan mustasno).

21. Agar fuqaro o‘zi sodir etgan huquqbuzarlik faktiga e’tiroz bildirib, ma’muriy bayonnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, bu haqda qog‘oz shakldagi ma’muriy bayonnomaga yozib qo‘yiladi.

Huquqbuzar ma’muriy bayonnomaning mazmuni yuzasidan unga ilova qilinadigan tushuntirish va mulohazalarini berishga, shuningdek, mazkur bayonnomaga imzo chekishdan bosh tortish sabablarini bayon etishga haqli. Bunda DYHXX xodimi tomonidan guvohlar va (yoki) xolislar ishtirokida dalolatnoma tuziladi hamda pdf formatda skaner qilingan holda belgilangan tartibda “Ma’muriy amaliyot” moduliga kiritiladi.

22. Huquqbuzar ma’muriy bayonnomani imzolashdan hamda bu haqda izoh berish yoki tushuntirish berishdan bosh tortgan hollarda ushbu ma’muriy bayonnoma guvohlar va (yoki) xolislar ishtirokida rasmiylashtiriladi.

Bunda mazkur talablarga rioya qilinmasdan rasmiylashtirilgan ma’muriy bayonnoma ko‘rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

23. DYHXX xodimi tomonidan rasmiylashtirilgan ma’muriy bayonnoma, unga ilova qilingan hujjatlar hamda ish bo‘yicha dalillar huquqbuzarlik sodir etilgan yoki aniqlangan paytdan e’tiboran uch sutkadan kechiktirmagan holda ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan DYHXX xodimiga (elektron shakldagi ma’muriy bayonnoma “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali elektron tarzda) yuboriladi.

24. Qoidabuzarlikni rasmiylashtirishda Kodeksning 54-moddasining ikkinchi qismida (transport vositalarining harakatlanishiga cheklovlar buzilishi qismida), 90^1-moddasida, 125-moddasining uchinchi, beshinchi va oltinchi qismlarida, 125^1-moddasining ikkinchi-to‘rtinchi qismlarida (bundan 125^1-moddaning ikkinchi – to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar avtomatlashtirilgan o‘lchov vositalari orqali aniqlangan hollar mustasno), 126-moddasida, 127-moddasining ikkinchi qismida, 128^6-moddasida (agar transport vositasining haydovchisi bo‘lmasa va to‘xtash yoki to‘xtab turish qoidalarining buzilishi yo‘l harakati ishtirokchilarining harakatlanishiga xalaqit bersa), 128^{10}, 131, 133-moddalarida, 134-moddasida (bundan yo‘l-transport hodisasi to‘g‘risida xabarnoma tuzilgan hollar mustasno), 135-moddasida (bundan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta polisi, haydovchilarning malaka oshirishdan o‘tganligi to‘g‘risidagi sertifikati yonida mavjud bo‘lmaganligi hollari mustasno), 136-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 137, 176^3-moddalarida, 194-moddasida (ichki ishlar organi xodimining transport vositasini to‘xtatish to‘g‘risidagi qonuniy talabini bajarmaslik qismida) nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etilganda, shuningdek qonun hujjatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan boshqa hollar aniqlanganda, transport vositalari ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ko‘rilgunga va ushlab turish sababi bartaraf etilgunga qadar to‘xtash joylarida (jarima maydonlarida) ushlab turilishi mumkin.

25. Kodeksning 290-moddasiga ko‘ra sodir etilgan huquqbuzarlik uchun Kodeksga muvofiq transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etish tarzida ma’muriy jazo qo‘llanilishi mumkin bo‘lsa, huquqbuzar tomonidan DYHXX

xodimiga taqdim etilgan transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasi olib qo‘yiladi va bu haqda ma’muriy bayonnomaga tegishli yozuv kiritiladi.

Olib qo‘yilgan haydovchilik guvohnomasi ma’muriy bayonnomaga ilova etilgan holda hududiy markaz xodimiga topshiriladi.

26. Kodeksning 127-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilganda ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, unga tovush chiqaruvchi yoki yorituvchi maxsus qurilma yoxud davlat raqam belgilarini ko‘rish imkoniyatini cheklaydigan, ularni anglashga to‘sqinlik qiladigan ashyolar ilova qilinadi. Ushbu qurilmalar guvohlar ishtirokida yechib olinib, dalolatnoma tuziladi va ushbu dalolatnoma pdf formatda skaner qilingan holda belgilangan tartibda “Ma’muriy amaliyot” moduliga kiritiladi.

27. Huquqbuzarlikni rasmiylashtirish jarayonida transport vositasini boshqargan shaxs mast holatda deb hisoblashga asoslar bo‘lganda, DYHXX xodimi mazkur shaxsni transport vositasini boshqarishdan chetlashtirish choralarini ko‘rib, mastlik holatini aniqlash uchun belgilangan tartibda tekshiruvdan o‘tkazishi kerak.

Shaxsning mastlik holatini aniqlash Transport vositalari haydovchilarining mast holatda ekanligini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 3099, 2018-yil 14-dekabr) talablari asosida amalga oshiriladi.

28. Mastlik holati belgilangan tartibda tasdiqlanganda, DYHXX xodimi huquqbuzarga nisbatan ma’muriy bayonnomani mazkur Yo‘riqnomaning 16 – 23-bandlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirib, transport vositasini ushlab turish uchun to‘xtash joylariga (jarima maydonlariga) joylashtirish choralarini ko‘radi.

29. Huquqbuzar tekshirishdan o‘tishdan bo‘yin tovlagan taqdirda, DYHXX xodimi ikki guvoh yoki xolis ishtirokida (bundan kuzatuv kamerasi (body camera)dan foydalangan holda amalga oshiriladigan tekshiruvlar mustasno) ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirib, huquqbuzarni transport vositasini boshqarishdan chetlashtiradi va transport vositasini ushlab turish uchun to‘xtash joylariga (jarima maydonlariga) joylashtirish choralarini ko‘radi.

Bunda ma’muriy bayonnomada mastlik belgilari va huquqbuzarning tekshirishdan bo‘yin tovlash harakatlari batafsil ko‘rsatiladi hamda ushbu ma’muriy bayonnomaga huquqbuzarning bo‘yin tovlash sabablari haqidagi tushuntirish xati va ikki guvoh yoki xolis ishtirokida tuzilgan dalolatnoma (bundan kuzatuv kamerasi (body camera)dan foydalangan holda amalga oshiriladigan tekshiruvlar mustasno) ilova qilinadi.

DYHXX xodimi tomonidan kuzatuv kamerasi (body camera)dan foydalangan holda amalga oshirilgan tekshiruv jarayoni aks etgan videotasvir ma’muriy bayonnomaga ilova qilinishi lozim.

30. Transport vositasi jarima maydonchasiga joylashtirilgan taqdirda, DYHXX xodimi o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy bayonnomani rasmiylashtiradi, mazkur Yo‘riqnomaning 4-ilovasiga muvofiq shakldagi elektron dalolatnomani tuzadi, elektron dalolatnomani tuzish imkoni bo‘lmagan hollarda (planshetda texnik uzilishlar yuz berganda yoki ma’muriy bayonnoma qog‘oz shaklida rasmiylashtirilgan holatlarda), ushbu dalolatnoma qog‘oz shaklida tuzilishi mumkin.

31. Elektron dalolatnoma planshet yoki kompyuter orqali IIV JXD YHXX YAATning “Jarima maydonchasi” axborot tizimida (bundan buyon matnda “Jarima maydoni” moduli deb yuritiladi) real vaqt rejimida tuziladi.

Elektron dalolatnomaning nusxasi transport vositasini jarima maydonchasida saqlash uchun mas’ul bo‘lgan shaxsga “Jarima maydoni” moduli va huquqbuzarga IIV JXD YHXXning mobil ilovasi orqali yuboriladi hamda bayonnomaga biriktiriladi. Bunda huquqbuzarga DYHXX xodimi tomonidan dalolatnomani IIV JXD YHXXning mobil ilovasi orqali olish mumkinligi tushuntiriladi.

Dalolatnoma qog‘oz shaklda rasmiylashtirilgan holatlarda uch nusxada tuzilib, birinchi nusxasi transport vositasini jarima maydonchasida saqlash uchun mas’ul bo‘lgan shaxsda qoldiriladi, ikkinchi nusxasi bayonnomaga biriktiriladi, uchinchi nusxasi huquqbuzarga beriladi.

32. Jarima maydoniga qo‘yilayotgan hamda chiqarilayotgan transport vositasi haqidagi ma’lumotlar jarima maydonining mas’ul shaxsi tomonidan “Jarima maydoni” moduliga kiritilishi shart.

Bunda jarima maydonining mas’ul shaxsi avtomototransport vositasini jarima maydoniga qo‘yishda “Jarima maydoni” moduli orqali o‘z shaxsiy kabinetidan foydalangan holda uning davlat raqami belgisini kiritganda, transport vositasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar avtomatik ravishda shakllantiriladi, transport vositasining holati va boshqa zarur bo‘lgan ma’lumotlar esa qo‘shimcha tarzda kiritiladi.

33. Transport vositasi jarima maydonchasiga qo‘yilgandan keyin, uni ushlab turish sababi bartaraf etilgandan yoki ma’muriy ish ko‘rib chiqilgandan so‘ng, DYHXX xodimining “Jarima maydoni” modulidan foydalangan holda rasmiylashtirilgan mazkur Yo‘riqnomaning 5-ilovasiga muvofiq shakldagi elektron ruxsatnomasi asosida chiqariladi.

Transport vositasini jarima maydonidan olib chiqishga transport vositasining egasiga yoki mazkur transport vositasidan fuqarolik-huquqiy munosabatlar asosida belgilangan tartibda foydalangan yoki boshqargan shaxsga ruxsat etiladi.

34. DYHXXning xodimlari Kodeksning 54, 123-moddalari, 125-moddasining birinchi, ikkinchi, uchinchi, beshinchi, oltinchi va yettinchi qismlarida, 125^1, 125^3, 126, 127, 128, 128^1, 128^2, 128^3, 128^4, 128^5, 128^6, 128^7, 128^8, 128^9, 128^{10}, 129, 130, 131, 133, 134, 135, 135^1, 136, 137, 138, 139, 140, 147, 194, 196-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun belgilangan tartibda elektron yoki qog'oz shaklda ma'muriy bayonnoma rasmiylashtiradi.

DYHXX xodimi huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida Kodeksning 123-moddasi, 125-moddasi birinchi va ikkinchi qismlari, 127-moddasi birinchi qismi, 128, 128^2-moddasi, 128^4-moddasi, 128^8, 128^9, 135^1, 138-moddasining birinchi, ikkinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar yuzasidan elektron ma'muriy jazo qo'llash to'g'risida qarorni planshet orqali rasmiylashtiradi.

Bunda ushbu qarorning xos raqami va jarima miqdori haqidagi ma'lumotlar mazkur Yo'riqnomaning 62-bandiga muvofiq yuboriladi.

Huquqbuzarlik rasmiylashtirilayotgan joyda ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorni chop etish imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda, qaror qog'ozda chop etilib, huquqbuzarga taqdim etiladi.

35. Ma'muriy ogohlantirish ma'muriy jazo chorasi sifatida huquqbuzarni qonunga xilof xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik to'g'risida ogohlantirgan holda unga rasmiy tanbeh berishdan iboratdir.

Agar Kodeksning 125-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 128^1, 128^2, 128^6, 135^1-moddalarida hamda 138-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs o'z qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lganda, shuningdek, sodir etilgan huquqbuzarlikda Kodeksda nazarda tutilgan boshqa huquqbuzarliklar alomatlari mavjud bo' lmagan taqdirda, bu haqda elektron yoki qog'oz shakldagi ma'muriy bayonnomada ko'rsatib o'tiladi.

36. Qoidalarni buzish natijasida transport vositalari, yuklar, yo'l va boshqa inshootlarga yoki o'zgalar mol-mulkiga moddiy zarar yetkazilsa, ma'muriy bayonnomaga mazkur Yo'riqnomaning 6-ilovasiga muvofiq shakldagi hodisaning chizmasi, shuningdek hodisa ishtirokchilarining, guvohlarining tushuntirishlari ilova qilinadi.

Hodisaning chizmasida transport vositalarining hodisadan keyingi holatini tiklash imkonini beruvchi aniq ma'lumotlar (ularning muqim obyektlarga nisbatan holati) ko'rsatiladi. Chizma uni chizgan vakolatli shaxs, haydovchilar, guvohlar yoki xolislar tomonidan imzolanadi.

37. Yo'l-transport hodisasi haqida berilgan xabar yuzasidan DYHXX xodimi hodisa sodir bo'lgan joyga yetib kelganda yo'l-transport hodisasida ishtirok etgan haydovchilar tomonidan yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnoma O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonunining 20^1 va 20^2-moddalariga muvofiq tuzilgan bo'lsa, DYHXX xodimi ushbu xabarnoma nusxasini olib bildirgi asosida ichki ishlar organlari navbatchilik qismiga topshiradi.

Bunda yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnomani tuzish uchun O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonunining 20^1-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan asoslardan istalgan bittasi mavjud bo'lmagan taqdirda DYHXX xodimi yo'l-transport hodisasini umumiy tartibda rasmiylashtirib, to'plangan hujjatlarni tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi vakolatli (mansabdor) shaxsga taqdim etadi.

38. Ma'muriy ish hujjatlari Kodeksning 282-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi IIV JXD YHXX YAATning "Ma'muriy amaliyot" moduli orqali tegishli sudlarga yuboriladi.

39. Haydovchilarga tergov yoki tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning vakolatli (mansabdor) shaxsi, surishtiruvchi tomonidan mazkur Yo'riqnomaning 7-ilovasiga muvofiq shaklda Transport vositalarining shikastlanganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma beriladi.

40. Yo'l-transport hodisasiga doir ma'muriy ish bo'yicha jabrlanuvchi yoxud uning qonuniy vakili yarashuv to'g'risida ariza berishi mumkin.

Bunda ushbu ariza ma'muriy ish DYHXXning vakolatli xodimi tomonidan ko'rib chiqilayotgan vaqtda, shuningdek, sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud qaror chiqarguniga qadar berilishi mumkin.

Arizada yetkazilgan zarar bartaraf etilgani, shuningdek, yarashilganligi munosabati bilan ma'muriy huquqbuzarlik haqidagi ish yuritilishini tugatish to'g'risidagi iltimos ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Agar ish bo'yicha bir necha jabrlanuvchi bo'lsa, faqat barcha jabrlanuvchilar bilan yarashuvga erishilgan taqdirda, yarashuv to'g'risidagi ishni yuritish mumkin.

DYHXX vakolatli (mansabdor) shaxsi arizani qabul qilish chog'ida jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga, agar sud yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ish bo'yicha ish yuritishni qayta tiklash haqida iltimosnoma berish huquqini yo'qotishini tushuntirishi shart.

41. Yo‘l-transport hodisasiga doir ma’muriy ishni ko‘rib chiquvchi DYHXX vakolatli (mansabdor) shaxsi taraflarning yarashuvi munosabati bilan ishni sudga yuborish to‘g‘risida qaror chiqaradi va ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masalani hal etish uchun ish materiallarini Kodeksning 313^3-moddasida belgilangan tartibda sudga yuboradi.

42. Huquqbuzarlikni rasmiylashtirish jarayonida huquqbuzarlikda jinoyat alomatlari mavjudligi ma’lum bo‘lsa, DYHXX xodimi shu kunning o‘zida holat yuzasidan rasmiylashtirilgan hujjatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tegishliligi bo‘yicha prokurorga yoki tergov organlariga yuboradi.

3-bob. Qoidalarning buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish

1-§ Elektron yoki qog‘oz shaklda rasmiylashtirilgan ma’muriy bayonnomalarni ko‘rib chiqish

43. Hududiy markaz xodimi DYHXX xodimi tomonidan huquqbuzarlik sodir etilgan joyda elektron shaklda rasmiylashtirilgan ma’muriy bayonnomaning belgilangan tartibda rasmiylashtirilganligini “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali ko‘rib chiqadi.

Ko‘rib chiqish natijasiga ko‘ra, rasmiylashtirilgan ma’muriy bayonnoma va unga ilova qilingan hujjatlar belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan yoki to‘liq hajmda taqdim etilmagan taqdirda, hududiy markaz xodimi ushbu bayonnoma va unga ilova qilingan hujjatlarni “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali uni rasmiylashtirgan DYHXX xodimiga qaytaradi.

44. DYHXX xodimi tomonidan qog‘oz shaklda rasmiylashtirilgan ma’muriy bayonnoma va unga ilova qilingan boshqa hujjatlar hududiy markazga kelib tushgan kuni ushbu hududiy markaz xodimi tomonidan ko‘rib chiqish uchun qabul qilib olinadi.

Agar qog‘oz shaklida rasmiylashtirilgan ma’muriy bayonnoma va unga ilova qilingan hujjatlar belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan yoki to‘liq hajmda taqdim etilmagan taqdirda, ushbu hujjatlar hududiy markaz xodimi tomonidan ko‘rib chiqish uchun qabul qilinmaydi hamda kamchiliklarni bartaraf etish uchun ularni rasmiylashtirgan DYHXX xodimiga shu vaqtning o‘zida qaytariladi.

45. Elektron yoki qog‘oz shaklida rasmiylashtirilgan ma’muriy bayonnoma va unga ilova qilingan hujjatlardagi kamchiliklar aniqlangan kundan boshlab bir sutka ichida bartaraf etilib, hududiy markaz xodimiga qayta taqdim etilishi lozim.

46. Ma’muriy ish ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ishtirokida ko‘rib chiqiladi, bundan maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan ma’muriy ish mustasno.

Ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsga ish qachon va qayerda ko‘rilishi haqida mazkur Yo‘riqnomaning 3-ilovasiga muvofiq shakldagi elektron xabarnoma “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali uning YIDXPdagi yoki IIV JXD YHXXning mobil ilovasidagi shaxsiy kabinetiga yuboriladi, bundan mazkur Yo‘riqnomaning 34-bandi ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan holat mustasno.

Ma’muriy ishni ko‘rib chiqishda Kodeksning 295 – 300-moddalarida (jabrlanuvchi, qonuniy vakillar, advokat, guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon) nazarda tutilgan shaxslar qatnashishi mumkin.

47. Huquqbuzarni ish qachon va qayerda ko‘rib chiqilishidan o‘z vaqtida xabardor etilganligi haqida ma’lumotlar bo‘lganda, undan ishni ko‘rib chiqishni kechiktirish haqida iltimosnoma tushmagan taqdirda ish uning ishtirokisiz ko‘rib chiqilishi mumkin.

48. Ma’muriy ish hujjatlari huquqbuzar ishtirokida ko‘rib chiqilayotganda, mazkur Yo‘riqnomaning 50-bandida nazarda tutilgan vakolatli shaxslar ishni o‘zini huquqbuzarga tanishtirishdan boshlaydi.

Ishni ko‘rib chiquvchi vakolatli shaxs qanday ish ko‘rib chiqilayotganligi, ma’muriy javobgarlikka kim tortilayotganligini e’lon qiladi, ishni ko‘rib chiqishda qatnashuvchi shaxslarga ularning huquqlari va vazifalarini tushuntiradi, ma’muriy bayonnomani o‘qib eshittiradi. Ishni ko‘rib chiqishda qatnashayotgan shaxslarni tinglaydi, dalillarni o‘rganadi va tushgan iltimoslar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qiladi.

49. Ma’muriy ish hujjatlari qabul qilib olingan kundan boshlab 15 kun muddat ichida ko‘rib chiqiladi.

50. Kodeksning 54, 123, 125-moddasining birinchi, ikkinchi, uchinchi, beshinchi, oltinchi va yettinchi qismlarida, 125^1, 126-moddalarida, 127-moddasining birinchi qismida, 128, 128^1, 128^2, 128^3, 128^4, 128^5, 128^6, 128^7, 128^8, 128^9, 129, 130, 135, 135^1-moddalarida, 136-moddasining uchinchi qismida, 138, 139-moddalarida, 140-moddasining birinchi qismida, 147-moddasida (avtomobil yo‘llarini o‘zboshimchalik bilan qazish, ularda sun’iy notekisliklar va to‘siqlar yaratish, avtomobil yo‘lida ishlarni amalga oshirish uchun berilgan ruxsatnoma talablarini bajarmaslik, shu jumladan yo‘llarda qurilish-qazish ishlarini olib borgan shaxslar tomonidan belgilangan muddatlarda yo‘l infratuzilmasini oldingi holatiga keltirmaslik, shuningdek yo‘llarni saqlash qoidalarini buzishga taalluqli qoidabuzarliklardan tashqari) nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar YHXX (boshqarmasining) boshlig‘i, uning o‘rinbosarlari, yo‘l-patrul xizmati bo‘limi (bo‘linmasi, guruhi) hamda Markaz va hududiy markazlarning xodimlari, yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining (bo‘linmasining) boshlig‘i, DYHXXning katta inspektori va yo‘l harakati xavfsizligi guruhining ma’muriy amaliyot bo‘yicha

inspektori, ular yo‘qligida esa ichki ishlar bo‘limining boshlig‘i yoki uning o‘rinbosari tomonidan ko‘rib chiqiladi va huquqbuzarga nisbatan ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

51. Kodeksning 125-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 128² va 135¹-moddalarida hamda 138-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar sodir etilganda, DYHXX xodimi tomonidan huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o‘zida mazkur Yo‘riqnomaning 8-ilovasiga muvofiq shaklda ma’muriy ogohlantirish qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin.

Mazkur bandning birinchi xatboshisida qayd etilgan hamda Kodeksning 128¹ va 128⁶-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha hududiy markaz xodimlari tomonidan mazkur Yo‘riqnomaning 8-ilovasiga muvofiq shaklda ma’muriy ogohlantirish qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin.

52. Ma’muriy ogohlantirish qo‘llash to‘g‘risidagi qaror haqidagi ma’lumot huquqbuzarga YIDXP hamda IIV JXD YHXXning mobil ilovasidagi shaxsiy kabineti orqali avtomatik tarzda yuboriladi.

53. Ma’muriy ogohlantirish jazo chorasi ayni bir shaxsga nisbatan bir yil davomida bir martadan ortiq qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

54. Hududiy markaz xodimlari sud organlari tomonidan ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan, Kodeksning 125³-moddasi, 127-moddasining ikkinchi qismida, 128¹⁰, 131, 133, 134-moddalarida, 136-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 137-moddasida, 140-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida, 194, 196-moddalarida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar haqidagi ishlarni mazkur Yo‘riqnomaning 70-bandiga muvofiq jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarga yuboradi.

55. Ma’muriy ish hujjatini ko‘rib chiqishda quyidagi holatlar aniqlanishi lozim:

ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan-etilmaganligi;

huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt va joy;

shaxs huquqbuzarlikni sodir etishda aybdor-aybdor emasligi va ma’muriy javobgarlikka tortilish-tortilmasligi;

javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlar bor-yo‘qligi;

ma’muriy ishni to‘g‘ri hal etishda ahamiyatga molik boshqa holatlar.

Bu holatlar quyidagi vositalar: ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnoma, ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tushuntirishlari, jabrlanuvchi, guvohlarning ko‘rsatuvlari, ekspert xulosasi, dalillar, ashyo va hujjatlarni olib qo‘yish to‘g‘risida tuzilgan dalolatnoma, audio-, videoyozuvlardan va fotosuratlardan iborat materiallar, shuningdek boshqa materiallar bilan belgilanadi.

Bunda Kodeksning tegishli moddalarida ma’muriy jazoni kuchaytirish nazarda tutilgan va takroriyligi hisobga olinadigan huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda ma’muriy ishni ko‘rib chiqayotganda huquqbuzarning avvalgi huquqbuzarliklarining takroriyligi aniqlanishi shart.

56. Alkogolli ichimlikdan mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglari yoxud shaxsning aql-idrokiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalar ta’siri ostida transport vositasini boshqarish, mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoxud ularning analoglari yoki shaxsning aql-idrokiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalar ta’siri ostida ekanligini belgilangan tartibda aniqlash uchun tekshiruvdan o‘tishdan bo‘yin tovlash, svetoforning taqiqlovchi signaliga yoki yo‘l harakatini tartibga soluvchining taqiqlovchi ishorasiga bo‘ysunmaslik, ichki ishlar organi xodimining transport vositasini to‘xtatish haqidagi qonuniy talabini bajarmaslik, belgilangan harakat tezligini oshirish, temir yo‘lning o‘tish joylaridan o‘tish qoidalarini buzish, transport vositalarini quvib o‘tish qoidalarini buzish, tezkor va maxsus xizmatlarning ko‘k yoki qizil yoxud ko‘k va qizil rangli yaltiroq mayoqchani yoqqan holda hamda maxsus tovushli signal bilan yaqinlashib kelayotgan transport vositalari to‘siqsiz o‘tib ketishi uchun xalaqit berish, yo‘lning qarama-qarshi harakatlanish uchun mo‘ljallangan tomoniga yoki bo‘lagiga Qoidalarni buzgan holda chiqish, avariya holatini yuzaga keltirish, odam tashish qoidalarini buzish, yuk tashish, shatakka olish qoidalarini buzish, transport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo‘lmagan yoxud aynan shu transport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi hujjatlari mavjud bo‘lmagan shaxslarning transport vositalarini boshqarishi, xuddi shuningdek transport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo‘lmagan shaxsga transport vositalarini boshqarishning topshirilishi, yo‘l bezoriligi qo‘pol huquqbuzarliklar hisoblanadi.

57. Ma’muriy ish hujjatlarini ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

ma’muriy jazoni qo‘llash to‘g‘risida;

ishni yuritishni tugatish to‘g‘risida.

58. Ma’muriy ish hujjatlarini o‘rganish davomida, aniqlangan huquqbuzarlik holati voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, rasmiylashtirilgan ish hujjatlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalariga jo‘natiladi.

Agar ma’muriy ish Kodeksning tegishli moddalariga muvofiq sud organlari tomonidan ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lsa yoki huquqbuzar huquqbuzarlik faktini inkor etsa, ish hujjatlari sud organlariga yuboriladi.

59. Mazkur Yo‘riqnomaning 50-bandida nazarda tutilgan vakolatli shaxslar tomonidan ma’muriy ish ko‘rib chiqilib, shu ish yuzasidan “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali ushbu Yo‘riqnomaning 9-ilovasiga muvofiq shaklda elektron ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risida qaror chiqariladi.

Qarorda quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

qaror chiqargan organning (vakolatli shaxsning) nomi;

ish ko‘rib chiqilgan sana;

ishi ko‘rib chiqilayotgan shaxs xususidagi ma’lumotlar;

ishni ko‘rib chiqish paytida aniqlangan holatlarning bayoni;

Kodeksning ma’muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi;

ish yuzasidan qabul qilingan qaror.

60. Agar huquqbuzar o‘ziga nisbatan chiqarilgan ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarordan norozi bo‘lgan va sudga murojaat qilgan taqdirda, vakolatli shaxs tomonidan ma’muriy ish hujjatlari “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali tegishli sudga yuborilishi ta’minlanadi.

61. Quyidagi holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda ma’muriy ishlarni yuritishni boshlash mumkin emas, boshlangan ish esa tugatilishi lozim:

ma’muriy huquqbuzarlik hodisasi yoki alomati yo‘q bo‘lsa;

ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etish paytida shaxs o‘n olti yoshga to‘lmagan bo‘lsa;

g‘ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlikni sodir etgan shaxs aqli noraso bo‘lsa;

shaxs harakatni zaruriy mudofaa holatida yoki oxirgi zarurat holatida qilgan bo‘lsa;

shaxs harakatni jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo‘rqitish natijasida qilgan bo‘lsa;

amnistiya akti chiqishi, agar u ma’muriy jazo chorasini qo‘llanishni bekor qilsa;

ma’muriy javobgarlikni belgilovchi hujjat bekor qilingan bo‘lsa;

ma’muriy ishni ko‘rib chiqish paytiga kelib Kodeksning 36-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o‘tib ketgan bo‘lsa;

ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs xususida shu fakt yuzasidan ma’muriy jazo qo‘llanish to‘g‘risida vakolatli organ (mansabdor shaxs) qaror chiqargan bo‘lsa yoki ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni tugatish to‘g‘risida chiqarilgan qaror bekor qilinmagan bo‘lsa, shuningdek mazkur fakt yuzasidan jinoyat to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa;

shaxs ish yuritila boshlagan paytda vafot etgan bo‘lsa;

mazkur Yo‘riqnomaning 79-bandi ikkinchi xatboshisi va 82-bandida nazarda tutilgan hollarda.

62. Ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorning xos raqami va jarima miqdori haqidagi ma’lumotlar huquqbuzarning YIDXP hamda IIV JXD YHXXning mobil ilovasidagi shaxsiy kabinetiga yoki “SMS” xabar orqali telefon raqamiga yoki pochta xizmati orqali yashash manziliga yuboriladi. Huquqbuzar bu ma’lumotlarni ejarima.uz veb-sayti orqali ham olishi mumkin.

63. Huquqbuzar jarima to‘lovlarini to‘laganidan so‘ng to‘lov amalga oshirilganligi haqidagi ma’lumotlarni ejarima.uz veb-sayti yoki YIDXP hamda IIV JXD YHXXning mobil ilovasidagi shaxsiy kabineti orqali olishi mumkin.

64. Kodeksning 131, 140-moddalarida nazarda tutilgan ma’muriy ishlarni ko‘rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) huquqbuzarga nisbatan ma’muriy jazo qo‘llash haqida chiqarilgan qarorni shu huquqbuzar ishlab yoki o‘qib turgan joydagi ma’muriyat e’tiboriga yetkazadi.

65. Qoidalarning temir yo‘l kesishmalari orqali harakatlanish bandining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’muriy hujjatlar bo‘yicha jazo choralari Kodeksning 130-moddasi asosida qo‘llaniladi.

Temir yo‘l kesishmasi oldida 2.5 “To‘xtamasdan harakatlanish taqiqlangan” yo‘l belgisi talabini bajarmaslik ham Kodeksning 130-moddasi bo‘yicha ma’muriy choralarining qo‘llanilishiga olib keladi.

66. Ma’muriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarlik uchun esa huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab bir yildan kechiktirmay qo‘llanilishi mumkin.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilgan bo‘lsa-yu, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma’muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo‘lsa, ma’muriy jazo chorasi jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish yoki jinoyat

ishini tugatish to‘g‘risida, agar Kodeksning 36-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan muddatlar o‘tmagan bo‘lsa, qaror qabul qilingan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay qo‘llanilishi mumkin.

67. Bitta shaxs ikki yoki undan ortiq huquqbuzarlik sodir etgan bo‘lib, har bir huquqbuzarlik bo‘yicha alohida ma’muriy hujjatlar rasmiylashtirilgan taqdirda ma’muriy jazo har bir huquqbuzarlik uchun alohida-alohida qo‘llaniladi.

Agarda shaxs bir necha ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan bo‘lib, shu haqdagi ishlar bir vaqtning o‘zida aynan bir vakolatli shaxs tomonidan ko‘rib chiqilayotgan bo‘lsa, bu shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan uzil-kesil jazo og‘irroq ma’muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida qo‘llaniladi.

68. Ma’muriy ishni ko‘rib chiqish davomida ishda ko‘rsatilgan huquqbuzarlikda jinoyat alomatlari mavjudligi ma’lum bo‘lsa, shu kunning o‘zida holat yuzasidan rasmiylashtirilgan hujjatlar qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda tegishliligi bo‘yicha prokurorga yoki tergov organlariga yuboriladi.

69. Ma’muriy ishni ko‘rib chiqayotganda sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi to‘g‘risida yoki Kodeksning Maxsus qismidagi moddalarning sanksiyasida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham kamroq jazo chorasini qo‘llash uchun asoslar borligi haqida xulosaga kelingan taqdirda, ma’muriy ish huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish to‘g‘risidagi yoki yengilroq ma’muriy jazo chorasini qo‘llash haqidagi mazkur Yo‘riqnomaning 10-ilovasiga muvofiq shaklda rasmiylashtirilgan taqdimnoma bilan sudga yuboriladi.

70. Ma’muriy ishni ko‘rib chiqish davomida, ishda ko‘rsatilgan huquqbuzarlik sud organlari tomonidan ko‘rib chiqilishi aniqlanganda, sud organlariga taqdim etilishi lozim bo‘lgan hujjatlar rasmiylashtirilib, ushbu ishlar uch sutka ichida “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali ma’muriy ishni ko‘rib chiqish uchun tegishli sud organiga yuboriladi.

71. Harbiy xizmatchilar va yig‘inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek ichki ishlar organlarining hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar Qoidalarni buzganliklari uchun umumiy asoslarda ma’muriy javobgarlikka tortiladilar.

Muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchilariga jarima solinishi mumkin emas.

72. Daxlsizlik huquqiga ega bo‘lgan shaxslarni ma’muriy javobgarlikka tortish masalasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

73. O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan chet el fuqarolari Qoidalarni buzganligi uchun umumiy asoslarda ma’muriy javobgarlikka tortiladi.

Immunitetga ega bo‘lgan chet el fuqarolariga nisbatan mazkur Yo‘riqnomaning O‘zbekiston Respublikasi qatnashchi bo‘lgan xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid bo‘lmagan qismi qo‘llaniladi.

74. O‘zbekiston Respublikasiga avtosayyoh sifatida kelgan yoki xalqaro yuk (yo‘lovchi)larni tashiyotgan haydovchi tomonidan transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etish jazosi nazarda tutilgan huquqbuzarlik sodir etilganda, huquqbuzarga rasmiylashtirilgan ma’muriy bayonnoma va uning haydovchilik hujjatlari buyurtma xat orqali huquqbuzarlik sodir etilgan hududdagi sudga ma’muriy jazo chorasini ko‘rish uchun taqdim etiladi.

Bunda transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjatlar olinganligi to‘g‘risida avtosayyohning eslatmasiga, xalqaro yuklar (yo‘lovchilar)ni tashiyotgan haydovchining bu safarga asos bo‘lgan ruxsatnomasining “qo‘shimcha ma’lumotlar” bandiga yozib qo‘yiladi.

Transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etish muddati tugagach, qaytarib olinmagan transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjatlar kuzatuv xati bilan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga yuboriladi. Xatda haydovchining fuqaroligi, transport vositasining ro‘yxat raqami, yuki tashilayotgan tashkilotning nomi, transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjatlarning olib qo‘yish vaqti va sababi ko‘rsatiladi.

75. Kodeksning 313-moddasiga muvofiq ishni ko‘rib chiqayotgan vakolatli (mansabdor) shaxs ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etilishi sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlaganda, tashkilotlar rahbarlariga ana shu sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rish haqida taqdimnoma kiritishi lozim.

2-§ **Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo‘l harakati qoidabuzarliklarini ko‘rib chiqish**

76. Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali yo‘l harakati qoidabuzarliklari qayd etilgan taqdirda, ma’muriy javobgarlikka transport vositasining mulkdori yoki mazkur transport vositasidan fuqarolik-huquqiy munosabatlar asosida belgilangan tartibda foydalangan shaxs tortiladi.

Yuridik shaxsga qonunchilikka muvofiq tegishli transport vositasidan foydalanib sodir etilgan yo‘l harakati qoidabuzarliklari maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan taqdirda, ma’muriy javobgarlikka yuridik shaxsning transport vositasidan foydalanish uchun mas’ul bo‘lgan shaxsi yoki mazkur transport vositasidan fuqarolik-huquqiy munosabatlar asosida belgilangan tartibda foydalangan shaxs tortiladi.

77. Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali yo‘l harakati qoidabuzarligi qayd etilgan taqdirda huquqbuzarlikning takroriyligi inobatga olinmasdan jarima solish to‘g‘risida qaror chiqariladi, bundan mazkur Yo‘riqnomaning 96-bandi ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan hol mustasno.

78. Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo‘l harakati qoidabuzarliklari hududiy markaz xodimlari tomonidan ko‘rib chiqiladi.

79. Hududiy markaz xodimi tomonidan maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo‘l harakati qoidabuzarliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning qayd etilgan paytdan e’tiboran qirq sakkiz soat ichida yuborilganligi tekshiriladi.

Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo‘l harakati qoidabuzarliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlar qoidabuzarlik qayd etilgan paytdan e’tiboran qirq sakkiz soat ichida hududiy markazga kelib tushmagan taqdirda, ushbu ma’lumotlar ko‘rib chiqilmaydi va hududiy markaz xodimi tomonidan mazkur ma’muriy ish tugatiladi.

80. Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali Kodeksning 125-moddasi birinchi (xavfsizlik kamaridan foydalanish qoidalariga rioya etmaslikka oid qismida), beshinchi va oltinchi qismlarida, 128 (bundan ushbu moddaning yo‘lning qatnov qismidagi chiziqlar bilan belgilangan talablarga rioya etmaslikka, tashqi yoritish asboblaridan foydalanish qoidalarini buzishga, yo‘lovchilarga yoki piyodalarga loyqa sachratishga oid qismlari mustasno), 128^1, 128^3, 128^4, 128^5, 128^6, 128^7, 128^9, 128^{10}, 129 va 130-moddalarida, 135-moddasining ikkinchi (transport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo‘lmagan shaxslarga taalluqli qismida) va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar qayd etiladi.

Bunda maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali Kodeksning 128^{10}-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda, huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar elektron tarzda shakllantirilib, ko‘rib chiqish uchun “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali sud organlariga yuboriladi.

Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali Kodeks 135-moddasining ikkinchi (transport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo‘lmagan shaxslarga taalluqli qismi) va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda, ushbu huquqbuzarlik holatini ko‘rib chiqqan hududiy markaz xodimi tomonidan huquqbuzarga transport vositasini boshqarishni topshirgan shaxsni aniqlash ishlari tashkil etiladi.

Transport vositasini boshqarishni topshirgan shaxs aniqlangan taqdirda, unga nisbatan mazkur Yo‘riqnomaning 13 – 23-bandlariga muvofiq elektron yoki qog‘oz shakldagi ma’muriy bayonnoma rasmiylashtiriladi va rasmiylashtirilgan ma’muriy ish hujjatlari mazkur yo‘riqnomaning 46 – 49-bandlariga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

81. Yo‘l harakati qoidabuzarliklari maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan hollarda ma’muriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay, ma’muriy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat qilinganda esa huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e’tiboran bir yildan kechiktirmay qo‘llanilishi mumkin.

82. Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo‘l harakati qoidabuzarliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rib chiqish davomida transport vositasining mulkdori to‘g‘risidagi ma’lumot mavjud bo‘lmaganda, ushbu ma’lumotlar yuzasidan ma’muriy ish hududiy markaz xodimlari tomonidan tugatiladi.

83. Kodeksning 17^1-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan taqdirda ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirilmasdan huquqbuzarning ishtirokisiz mazkur Yo‘riqnomaning 11-ilovasiga muvofiq shakldagi jarima solish to‘g‘risidagi qaror chiqariladi.

84. Jarima solish to‘g‘risidagi qarorga maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari qo‘llanilgan holda olingan materiallar ilova qilinib, yuridik kuchga ega bo‘lgan elektron hujjat shaklida rasmiylashtiriladi hamda uni tuzgan vakolatli shaxsning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Jarima solish to‘g‘risidagi qarorning ko‘chirma nusxasi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari qo‘llanilgan holda olingan materiallar ilova qilinib, elektron hujjatni qog‘ozdagi hujjatga aylantirish yo‘li bilan tayyorlanadi hamda mazkur qaror chiqarilgan kundan e’tiboran uch kun ichida buyurtma pochta jo‘natmasi tarzida huquqbuzarga yuboriladi.

Jarima solish to‘g‘risidagi qaror elektron hujjat shaklida huquqbuzarning YIDXP hamda IIV JXD YHXXning mobil ilovasidagi shaxsiy kabinetiga ham avtomatik tarzda jo‘natiladi.

Jarima solish to‘g‘risidagi qarorda ushbu qaror chiqarilgan sana va joy, uni chiqargan organning nomi, shaxsning lavozimi va familiyasi, ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt, joy va holatlar, Kodeks Maxsus qismining mazkur huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi, moddasining qismi ko‘rsatilgan holda, maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari bilan

qayd etilgan transport vositasining huquqbuzarlik sodir etilgan paytdagi davlat raqami belgisi bilan tushirilgan tasviri, qabul qilingan qaror, tayinlangan jarimani to‘lash tartibi va muddatlari, ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning huquq va majburiyatlari, shuningdek jarima solish to‘g‘risidagi qaror xususida shikoyat berishning protsessual tartibi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

85. Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari yoki avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar haqidagi ma’lumotlar (texnik ekspertiza xulosasi, o‘lchash vositalarining dalolatnomalari, log-fayllar va boshqa hujjatlar) elektron aloqa tarmog‘i orqali real vaqt rejimida “Ma’muriy amaliyot” moduliga konvertatsiya qilish yo‘li bilan taqdim etiladi.

86. O‘zbekiston Respublikasiga avtosayyoh sifatida kelgan yoki xalqaro yuk (yo‘lovchi)larni tashiyotgan haydovchi tomonidan sodir etilgan qoidabuzarlik holatlari maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilganda, ushbu huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ma’lumot va jarima solish to‘g‘risidagi qaror, ularning ijrosi ta’minlanishi uchun Bojxona qo‘mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali real vaqt rejimida yuboriladi.

3-§ **Ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqishda jarima ballari**

87. Kodeksning 125-moddasi uchinchi va beshinchi qismlarida, 126-moddasida, 127-moddasi birinchi qismida, 128^3-moddalarida, 128^4-moddasi ikkinchi qismida, 128^5, 128^6, 128^8, 128^9, 129, 130-moddalarida, 137-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar sodir etilganligi uchun transport vositasining haydovchisiga nisbatan mazkur moddalarda nazarda tutilgan asosiy jazo bilan birga jarima ballari hisoblanadi.

Bunda sodir etilgan har bir huquqbuzarlik uchun hisoblanadigan jarima ballining eng yuqori miqdori ikki balldan oshmasligi kerak.

88. Jarima ballari mazkur Yo‘riqnomaning 87-bandi birinchi xatboshida nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan biri birinchi marta sodir etilgan kundan e’tiboran bir yil davomida hisoblab boriladi va hisoblangan jarima ballari bir yil o‘tgach transport vositasining haydovchisidan avtomatlashtirilgan tarzda yechiladi.

89. Hisoblangan jarima ballari bir yil davomida o‘n ikki balldan oshgan hollarda, qo‘shimcha jazo qo‘llash uchun ma’muriy ish hujjatlari avtomatik tarzda elektron shaklda “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlariga yuboriladi.

Bunda huquqbuzar bir yil davomida o‘n ikki balldan oshgan huquqbuzarliklar sodir etganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali avtomatik ravishda ma’muriy ish hujjatlariga ilova etiladi.

4-bob. Qoidalarning buzilishiga doir ma’muriy ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berish va protest bildirish

90. Maʼmuriy ish yuzasidan qaror ustidan oʻziga nisbatan qaror chiqarilgan shaxs, jabrlanuvchi, ularning qonuniy vakillari va advokat tomonidan, shuningdek maʼ muriy huquqbuzarlik toʻ gʻ risida bayonnoma tuzgan organ tomonidan shikoyat berilishi mumkin.

91. Ma’muriy ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga) yoki jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudiga shikoyat berilishi mumkin.

Shikoyat ma’muriy ish yuzasidan qaror qabul qilgan organ (mansabdor shaxs) orqali yoki bevosita shikoyat yo‘llangan sudga yuboriladi.

Maʼmuriy ish yuzasidan qaror chiqargan organ (mansabdor shaxs) shikoyatni olgach, uni uch sutka ichida ma’muriy ish bilan birga shikoyatni ko‘rib chiqish huquqiga ega bo‘lgan organ (mansabdor shaxs)ga yuboradi.

92. Ma’muriy ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat shu qarorning nusxasi olingan kundan boshlab o‘n kun ichida berilishi mumkin. Mazkur muddat uzrli sabablar bilan (kasallik, ta’til, xizmat safari va shaxsga bog‘liq bo‘lmagan boshqa obyektiv holatlar) o‘tkazib yuborilgan taqdirda tegishli tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgach, ustidan qaror chiqarilgan shaxsning arizasiga muvofiq shikoyatni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan shaxs tomonidan qayta tiklanishi mumkin.

Belgilangan muddatda shikoyat berish ma’muriy jazo qo‘llanishi to‘g‘risidagi qarorning ijrosini shikoyat ko‘rib chiqilgunga qadar to‘xtatib turadi, bundan ma’muriy qamoq jazosi qo‘llanishi to‘g‘risidagi qaror mustasno.

93. Prokuror ma’muriy ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan qaror chiqargan organga (vakolatli shaxsga) yoki yuqori turuvchi organga (vakolatli shaxsga) protest bildirishi mumkin.

Prokurorning protest bildirishi ma’muriy ish yuzasidan qabul qilingan qaror ijrosini protest ko‘rib chiqilgunga qadar to‘xtatib turadi.

94. Shikoyat yoki protestni ko‘rib chiqishga vakolati bo‘lgan shaxs shikoyat yoki protestda ko‘rsatilgan holatlarni 10 kun ichida o‘rganib chiqadi va zarurat bo‘lganda holat yuzasidan belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o‘tkazadi.

95. Ma’muriy ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyatni yoki protestni ko‘rib chiqib, vakolatli shaxs quyidagi hal qiluv qarorlardan birini qabul qiladi:

chiqarilgan qarorni o‘zgarishsiz, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirishsiz qoldirish to‘g‘risida;

chiqarilgan qarorni bekor qilish va ishni qayta ko‘rib chiqish uchun yuborish to‘g‘risida;

chiqarilgan qarorni bekor qilish va ishni yuritishni tugatish to‘g‘risida;

jazo chorasini kuchaytirmagan holda uni ma’muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatda nazarda tutilgan doirada o‘zgartirish to‘g‘risida.

96. Agar ma’muriy ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan berilgan shikoyatni ko‘rib chiqish jarayonida tegishli transport vositasiga huquqbuzarlik qayd etilgan paytda egalik qilgan shaxs aniqlansa yoxud mazkur transport vositasi boshqa shaxslarning g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlari natijasida transport vositasi mulkdorining egaligidan chiqib ketganligi aniqlansa, transport vositasining mulkdori o‘ziga tegishli transport vositasidan foydalanib sodir etilgan, maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan ma’muriy huquqbuzarlik uchun ma’muriy javobgarlikdan ozod etiladi.

Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan ma’muriy huquqbuzarlik bo‘yicha ish yangidan ko‘rib chiqish uchun yuborilib, qaror bekor qilingan taqdirda, mazkur ish ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan u ilgari sodir etgan huquqbuzarliklarning takroriyligi inobatga olingan holda umumiy asoslarda ko‘rib chiqiladi.

97. Shikoyatni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha vakolatli shaxs mazkur Yo‘riqnomaning 12-ilovasiga muvofiq shakldagi hal qiluv qarorini qabul qiladi.

98. Agar ma’muriy ish yuzasidan chiqarilgan qaror bunga vakolati bo‘lmagan DYHXX xodimi tomonidan chiqarilgan bo‘lsa, qaror bekor qilinadi va ish Markazga ko‘rib chiqish uchun yuboriladi.

99. Ma’muriy ish yuzasidan chiqarilgan qarorning bekor qilinishi olib qo‘yilgan haydovchilik guvohnomasini qaytarib berishga asos bo‘ladi.

100. Jarima solish to‘g‘risidagi qaror bekor qilingan taqdirda undirilgan pul miqdori qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qaytarib beriladi.

101. DYHXX xodimi tomonidan jarima solish to‘g‘risidagi qaror ushbu Yo‘riqnoma va boshqa qonunchilik hujjatlariga nomuvofiq rasmiylashtirilgan taqdirda ushbu xodimga nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkaziladi. Bunda DYHXX xodimiga nisbatan ko‘rilgan tegishli choralar haqidagi ma’lumot ma’muriy ish hujjatlariga qo‘shib qo‘yiladi.

5-bob. Ma’muriy ish yuzasidan chiqarilgan qarorni ijro etish

102. Agarda Kodeksda va boshqa qonunchilik hujjatlarida o‘zgacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, ma’muriy jazo qo‘llanish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan paytdan boshlab ijro etilishi lozim.

Agar ma’muriy jazo qo‘llanish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan kundan boshlab uch oy mobaynida ijroga qaratilmagan bo‘lsa, u holda bunday qaror ijro etilmaydi. Ushbu holat bo‘yicha DYHXX xodimiga nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkaziladi va unga nisbatan ko‘rilgan tegishli choralar haqidagi ma’lumot ma’muriy ish hujjatlariga qo‘shib qo‘yiladi.

103. Qoidalarni buzganlik uchun solingan jarimani huquqbuzar jarima solish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan kundan boshlab oltmish kundan kechiktirmay, bunday qaror xususida shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda esa, shikoyat yoki protest qanoatlantirilmaganligi to‘g‘risida xabar berilgan kundan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay to‘lashi lozim.

Ma’muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun solingan jarima huquqbuzar tomonidan bank kassalari, elektron to‘lov tizimlari yoki mobil ilovalar orqali to‘lanadi.

104. Qoidalarni buzganlik uchun jarima solish haqida qaror chiqarilgan kundan e’tiboran oltmish kun ichida jarima to‘lanmagan taqdirda, jarima solish to‘g‘risida qaror chiqargan vakolatli organ tomonidan elektron tizimlarda avtomatik tarzda joylashtirilgan ma’lumotga ko‘ra transport vositasi jarima solish to‘g‘risidagi qarorning ijrosi yuzasidan ish yuritish tugaguniga qadar ushlab turiladi (bundan jarima uchun to‘lov elektron to‘lov tizimlari, mobil ilovalar yoki bank kassalari orqali amalga oshiriladigan hollar mustasno).

105. Jarima solish haqida qaror chiqarilgan kundan e’tiboran oltmish kun ichida belgilangan jarima to‘lanmagan bo‘lsa, ushbu qarorda ko‘rsatilgan transport vositasi haqidagi ma’lumotlar DYHXX xodimlari planshetlari va boshqa axborot tizimlarida real vaqt rejimida avtomatik tarzda aks ettiriladi. DYHXX xodimlari ushbu ma’lumotlarga asosan ma’muriy bayonnomani rasmiylashtirmagan holda mazkur Yo‘riqnomaning 30 va 31-bandlarida belgilangan harakatlarni amalga oshirishi lozim.

Bunda jarima solish haqidagi qarorda belgilangan jarima elektron to‘lov tizimlari, mobil ilovalar yoki bank kassalari orqali joyida to‘liq to‘lanib, to‘lov amalga oshirilganligi haqidagi ma’lumot tegishli elektron axborot tizimida avtomatik

ravishda aks etganligi tasdiqlangan taqdirda transport vositasi jarima maydonchasiga joylashtirilmaydi.

106. Mazkur Yo‘riqnomaning 105-bandida nazarda tutilgan talablarga muvofiq ushlab turilgan (jarima maydonchasiga joylashtirilgan) transport vositalarini ushlab turish sababi bartaraf etilganligi (jarima solish haqidagi qarorda belgilangan jarimalar to‘langanligi) hududiy markaz xodimlari tomonidan “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali real vaqt rejimida tekshiriladi.

Tekshirish natijasiga ko‘ra, transport vositasini ushlab turish sababi bartaraf etilganligi tasdiqlanganidan so‘ng hududiy markaz xodimi “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali mazkur Yo‘riqnomaning 5-ilovasiga muvofiq shakldagi elektron ruxsatnomani IIV JXD YHXX YAATning “Jarima maydoni” moduliga yuboradi.

Elektron ruxsatnomaning nusxasi huquqbuzarning talabiga ko‘ra qog‘oz shaklda ham chop etilib, unga taqdim etilishi mumkin.

107. Huquqbuzar o‘ziga nisbatan chiqarilgan jarima solish to‘g‘risidagi qarorni olgan kundan boshlab o‘n besh kun ichida jarima miqdorining ellik foizini yoki o‘ttiz kun ichida jarima miqdorining yetmish foizini ixtiyoriy ravishda to‘lagan taqdirda, u jarimaning qolgan qismini to‘lashdan ozod qilinadi, quyidagi hollar bundan mustasno:

Kodeksning 131, 136 va 140-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar sodir etilganda;

jarima solish to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat qilinganda yoki protest bildirilganda;

xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilganda.

108. Huquqbuzar jarimani Kodeksda belgilangan muddat ichida to‘lamagan taqdirda ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaror sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining majburiy ijrosini amalga oshirish maqsadida ijro hujjatlari “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi va uning hududiy bo‘linmalariga yuboriladi, bunda jarimani ixtiyoriy to‘lash imkoniyati to‘g‘risida huquqbuzarni xabardor qilgan holda unga ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorning yuborilganligi to‘g‘risidagi ma’lumot ijro hujjatiga ilova qilinadi.

Ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat berish ushbu qarorning ijrosini shikoyat ko‘rib chiqilgunga qadar to‘xtatib turadi.

109. Majburiy ijroga qaratilgan jarima solish to‘g‘risidagi qaror ijro etilganidan so‘ng davlat ijrochisi ijro ishini yuritishni tamomlash to‘g‘risida qaror chiqaradi va uning bir nusxasini uni chiqargan organga (mansabdor shaxsga) yoki sudga yuboradi.

110. Transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxslarning transport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomalari ularning yashash joyidagi YHXBning saqlash uchun vakolatli bo‘lgan bo‘linmalarida saqlanadi.

6-bob. Murojaatlarni “yagona darcha”, “eksterritoriallik” va “open space” tamoyillari asosida ko‘rib chiqish

111. Jismoniy va yuridik shaxslarning ma’muriy ishlar bo‘yicha murojaatlari “yagona darcha”, “eksterritoriallik” va “open space” tamoyillari asosida Markaz va hududiy markazlarda ko‘rib chiqiladi.

112. Qoidalarning buzilishiga doir chiqarilgan qaror va yuborilgan xabarnomalar yuzasidan YIDXP orqali kelib tushgan murojaatlar Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 3-iyuldagi 382-son qarori bilan tasdiqlangan Yo‘l harakati qoidalari buzilishiga doir chiqarilgan qaror va yuborilgan xabarnomalar yuzasidan Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmatiga elektron murojaat qilishning ma’muriy reglamentiga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

113. Markaz va hududiy markazlarda murojaatchilarni qabul qilish uchun belgilangan joylarda elektron navbat tashkil etiladi, murojaatlarni elektron shaklda rasmiylashtirish hamda ularni “open space”, “yagona darcha” va “eksterritoriallik” tamoyillari asosida ko‘rib chiqish uchun boshqa zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

114. Murojaatchilar Markaz va hududiy markazlarga kelganda, maxsus axborot qurilmalari orqali navbat olib, ushbu qurilmalarda shikoyat va murojaat shaklini tanlab, zarur bo‘lgan ma’lumotlarni kiritganidan so‘ng Markaz va hududiy markaz xodimlari tomonidan qabul qilinadilar.

115. Markaz va hududiy markazlarning ishchi-xizmatchilari murojaatchilarga elektron navbat olish yoki murojaatlarni shakllantirishda hamda maxsus axborot qurilmalaridan foydalanishda har tomonlama ko‘mak ko‘rsatadi.

116. Markaz va hududiy markazlarning xodimlari murojaatchilarga quyidagilarni tushuntirishi shart:

Markaz va hududiy markazlarda faqat ma’muriy ishlar bilan bog‘liq murojaatlar ko‘rib chiqilishini;

ushbu murojaatlarni ko‘rib chiqilishining batafsil tartibini;

ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarordan norozi bo‘lgan taqdirda, ushbu ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaror ustidan yuqori turuvchi organga yoki sudga belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkinligini;

ma’muriy ish yuzasidan jabrlanuvchi va uning qonuniy vakili hamda advokatlar belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega ekanligini.

117. Murojaatlarni ko‘rib chiqishda Markaz va hududiy markazlarning xodimlari quyidagilarni amalga oshiradi:

murojaatlarni ko‘rib chiqish jarayonida murojaatchilardan ortiqcha ma’lumot va hujjatlarni talab etmagan holda, zarur bo‘lgan ma’lumot va hujjatlarni tegishli vazirlik va idoralardan “Ma’muriy amaliyot” moduli orqali olishni;

murojaatlarning tahlili asosida muammolarning kelib chiqish sabablarini o‘rganishni va murojaatchilarga qonunchilikda belgilangan tartibda javoblar berishni;

Qoidalarning buzilishi bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa murojaatlar kelib tushganda, mazkur murojaatlarning mazmunidan kelib chiqqan holda, ularni DYHXXning tegishliligi bo‘yicha bo‘linmalariga yuborish va murojaatchilarga, ushbu bo‘linmalar joylashgan joylari va boshqa zarur bo‘lgan ma’lumotlar to‘g‘risida tushuntirish berishni.

Ma’muriy ish yuzasidan yoki chiqarilgan qaror yuzasidan kelib tushgan murojaatlar amaldagi qonunchilik hujjatlari va mazkur Yo‘riqnoma talablari asosida ko‘rib chiqiladi.

7-bob. Yakunlovchi qoida

118. Mazkur Yo‘riqnoma talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

QMMB: 10/26/3969/1107-son
06.11.2026-y.

Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir
ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish
va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi
yo‘riqnomaga
1-ILOVA

1. *O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 269[1], 279 va 281-moddalariga asosan*

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma

2. Seriya ☐☐☐ **3.** Raqam ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐ **6.**

4. Sana ___/___/___ (kun, oy, yil) **5.** Viloyat, shahar/tuman nomi _____

BAYONNOMANI TUZGAN ORGAN (MANSABDOR SHAXS)

Vakolatli organ ramzi

7. Organ _____ **8.** Jeton yoki guvohnoma (seriyasi, raqami) _____ **9.** Bayonnomani tuzgan shaxsning imzosi *Elektron imzo*

10. Sana ___/___/_____ (kun,oy,yil)

11. F.I.O ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐ **12.** Lavozimi _____ **13.** Unvoni _____

MA’MURIY HUQUQBUZARLIKNI SODIR ETGAN SHAXS

14. shaxsga oid ma’lumotlar, multibiometrik taqqoslash orqali identifikatsiya qilingan

Sh-1 dagi fuqaroni fotosurati

15. F.I.O ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐

16. Tug‘ilgan sanasi ____/__/__ (yil, kun, oy) **17.** Telefon raqami +998(__)___ __ __

18. Tug‘ilgan joyi

19. Hujjatning seriya va raqami ___/_____ **20.** Millati _____ **21.** Fuqaroligi _____

22. Turar joyi

23. Ish joyi, mashg‘ulot turi, lavozimi

24. Sug‘urta polisi (seriyasi, raqami, amal qilish muddati)

25. Mastlik holati:

26. Transport vositasi haqida ma’lumot (rusumi, davlat raqami belgisi, turi, rangi)

27.

Avval ma’muriy javobgarlikka tortilgani haqida ma’lumotlar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA’MURIY JAVOBGARLIK TO‘G‘RISIDAGI KODEKSIDA KO‘RSATILGAN HUQUQBUZARLIKLAR SODIR ETILDI

28. Huquqbuzarlik sodir etilgan sana **29.** Vaqt: __:__ **30.** Sana ___/___/_____ (kun, oy, yil)

31. Modda ____ **32.** Prim ____ **33.** Qism ____ **34.** Qo‘shimcha modda _____

35. _____ qoidalarining _____ band(lar)i buzildi.

Bayonnoma bilan tanishdim va O‘zbekiston Respublikasining MJtKning 294-moddasiga asosan mening huquq va majburiyatlarim tushuntirildi.

36. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning imzosi *Elektron imzo*

37. ☐ **Men roziman** **38.** ☐ **Rozi emasman**

39. ☐ **SMS** **40.** ☐ **Pochta**

41. Sana ___/___/_____ (kun, oy, yil)

42. Ma’muriy huquqbuzarlik qayerda sodir etilgan va qanday tartibda, tafsiloti

43. Ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning tushuntirish xati

Sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlikni tasdiqlovchi guvoh, xolislar yoki jabrlanuvchilar O‘zR MJtKning **295** va **298**-moddalari talablari bilan tanishtirildi:

44. guvoh, xolis yoki jabrlanuvchining F.I.O, tug‘ilgan sanasi, telefoni raqami va yashash manzili

45. shaxsning imzosi *Elektron imzo*

46. Sana ___/___/_____ (kun,oy,yil) Elektron imzo

47. guvoh, xolis yoki jabrlanuvchining F.I.O, tug‘ilgan sanasi, telefoni raqami va yashash manzili

48. shaxsning imzosi *Elektron imzo*

49. Sana ___/___/_____ (kun,oy,yil) Elektron imzo

50. Yetkazilgan zarar

51. Zarar miqdori (so‘m) *xxx xxx,xx* (miqdori yozuv ko‘rinishida)

52. Olib qo‘yilgan ashyolar

53. Bayonnomaga ilova qilingan hujjatlar

Ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha jalb etilgan tarjimonga oid ma'lumotlar hamda haydovchilik guvohnomasi, talon, sug'urta va boshqa hujjatlar

Ma'muriy ishni ko'rib chiqish joyi va vaqti to'g'risida ogohlantirildim

54. Huqubuzarlik sodir etgan shaxsning imzosi

Elektron imzo

55. ☐ **SMS**

56. ☐ **Pochta**

57. Sana

___/___/_____
(kun, oy, yil)

QMMB: 10/26/3969/1107-son
06.11.2026-y.

Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga 2-ILOVA

YO‘L HARAKATI QOIDALARI BUZILGANLIGI HAQIDA
UZ - __ - SERIYALI __ - _____ RAQAMLI
BAYONNOMA

20__ yil «___»_____kuni soat _____ _____
(hudud nomi)

Ushbu bayonnomani men, _____ ko‘krak nishon belgili, _____
_____
(lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi, otasining ismi)
_____

tuzdim. Fuqaro

(familiyasi, ismi, otasining ismi)

_____ _____
(tug‘ilgan sanasi, joyi) (millati)

Fuqaroligi (1-O‘zbekiston, 2-chet el fuqarosi, 3-fuqaroligi bo‘lmagan)
Jinsi (1-erkak, 2-ayol)

Haydovchilik guvohnomasi: _____ _____ _____ _____
(seriyasi) (raqami) (toifasi) (amal qilish muddati)

Haydovchilik guvohnomasi taloni: _____ _____ _____ _____
(seriyasi) (raqami) (toifasi) (amal qilish muddati)

Sug‘urta polisi: _____ _____ _____
(seriyasi) (raqami) (amal qilish muddati)

_____
_____ _____
(yashash joyi) (telefon)

_____
_____ _____
(ish joyi) (telefon)

Transport vositasi haqida ma’lumot: _____ _____ _____
(rusumi) (davlat raqam belgisi) (turi)

_____ Transport vositasini qayd qilish guvohnomasi _____
(rangi) (seriyasi, raqami)

Tegishliligi: _____
(familiyasi, ismi, otasining ismi yoki tashkilotning nomi va manzili)

Ishonchnoma: _____ _____ _____
(seriyasi) (raqami) (amal qilish muddati)

Shaxsini tasdiqlovchi hujjat: _____ _____ _____
(turi) (seriya, raqami) (berilgan vaqti)

Menga O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 294-moddasida belgilangan huquq va burchlarim tushuntirildi: _____
(haydovchining (piyodaning) imzosi)

20____ yil «____» _____ kuni soat _____ transport vositasini boshqarayotib, _____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
(huquqbuzarlik sodir etilgan joy va uning tafsiloti)

ya'ni, Yo'l harakati qoidalarining _____ bandi buzildi.

Huquqbuzarlik _____ aniqlandi.
(texnik vosita rusumi)

Guvoh yoki xolislar: MJtKning 298-moddasi talablari bilan tanishtirildi.

1. _____
(familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili)
_____ _____
(yashash joyi) (imzo)
2. _____
(familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili)
_____ _____
(yashash joyi) (imzo)

Bayonnoma bilan tanishdim, uning mazmuni bo'yicha quyidagilarni bildiraman:
_____
_____
_____
_____
_____ _____
(huquqbuzarning tushuntirish berishi) (huquqbuzarning imzosi)

Bayonnomaga ilova etiladi: _____
(haydovchilik guvohnomasi, talon)
_____
(tibbiy tekshiruv xulosasi (bayonnomasi), dalolatnoma, tushuntirish xati, ishga oid boshqa hujjatlar)

Ma'muriy ish ko'riladigan joy _____

Ma'muriy ishni ko'rib chiqish joyi va vaqti to'g'risida ogohlantirildim: _____
(imzo)

Bayonnomani tuzgan mansabdor shaxs imzosi: _____

QMMB: 10/26/3969/1107-son
06.11.2026-y.

Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga
3-ILOVA

X A B A R N O M A

Fuqaro _____
(familiyasi, ismi, otasining ismi)

Siz tomondan sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish uchun 20___ yil «____» _____kuni soat _____da quyidagi _____ manzilga kelishingiz so‘raladi.

O‘zingiz bilan shaxsiy pasportingiz yoki identifikatsiya ID-kartangiz (shaxsni tasdiqlovchi hujjat) bo‘lishi kerak.

Ko‘rsatilgan muddatda kelmasangiz yo‘l harakati qoidasini buzganligingiz to‘g‘risidagi ish Sizning ishtirokingizsiz ko‘rib chiqiladi.

_____
(xabarnomani yuborgan xodimning lavozimi, unvoni, F.I.Sh)

20_____ yil «_____» _____
(yuborilgan sana)

Elektron imzo

QMMB: 10/26/3969/1107-son
06.11.2026-y.

Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga
doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish
va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi
yo‘riqnomaga
4-ILOVA

D A L O L A T N O M A _____-son

_____ «___» _____ 20___ -yil
(hudud)

_____
(Jarima maydonchasining nomi)

Transport vositasi rusumi _____ davlat raqam belgisi _____

Tashqi ko‘rinishi:

1. Oyna tozalagich _____ 4. Transport vositasi holati _____
2. Yon oynasi _____ 5. Kuzov holati _____
3. Antenna _____

Salon:

1. Orqa ko‘rinish oynasi _____ 4. Parda _____
2. Magnitofon _____ 5. Bar_____
3. Bosh qo‘ygich _____ 6. O‘rindiqlar holati _____

Bagajda:

1. Ehtiyot avtoshina _____ 2. Domkrat _____ 3. Temir kalitlar _____
4. _____

Transport vositasida pul va qimmatbaho buyumlar

_____
(agar bunday buyumlar bo‘lgan taqdirda nomi ko‘rsatiladi)

Haydovchi: _____
(familiya, ismi, otasining ismi, imzosi)

DYHXX xodimi: _____
(familiya, ismi, otasining ismi, imzosi)

Qabul qiluvchi: _____
(familiya, ismi, otasining ismi, imzosi)

Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga
doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish
va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi
yo‘riqnomaga
5-ILOVA

Davlat Yo‘l harakati
xavfsizligi xizmati
“Ma’muriy amaliyot” moduli

O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi

TRANSPORT VOSITASINI TURARGOHDAN CHIQARISH RUXSATNOMASI

_____ transport vositasi vaqtincha saqlash joyiga _____ kuni
(jarima maydoni nomi) *(sana)*
O‘zbekiston Respublikasi MJtKning _____ moddasi talablarini buzganligi
(qoidabuzarlik turi)
uchun _____ raqamli ma’muriy bayonnoma asosida vaqtincha
(bayonnoma raqami)
ushlab turish uchun qo‘yilgan _____ rusumli, _____ davlat
(rusumi) *(davlat raqam belgisi)*
raqam belgili transport vositasini olib chiqib ketish uchun
_____ga
(F.I.O)
_____ tomonidan ruxsat etiladi.
(ruxsat bergan xodim unvoni, F.I.O)

QR-kod

Berilgan sana

QMMB: 10/26/3969/1107-son
06.11.2026-y.

Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga
doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish
va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi
yo‘riqnomaga
6-ILOVA

HODISA ChIZMASI

Chizmada transport vositalarining hodisadan keyingi
holatini ko‘rsatuvchi aniq ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak
(ularning joylashishi qo‘zg‘almas jismlarga nisbatan ko‘rsatilishi kerak)

Chizma va hodisa tafsilotlarining
bayonnomadagi izohiga rozimiz:

1. Haydovchi_____
(imzo)

2. Haydovchi_____
(imzo)

Guvohlar:

1. _____
(familiyasi, ismi, otasining ismi

_____
yashash joyi, ish joyi, telefon)

2. _____
(familiyasi, ismi, otasining ismi

_____
yashash joyi, ish joyi, telefon)

_____ _____
(chizma tuzuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, unvoni) (imzo)

Blankalar 5 millimetrli setkali qog‘ozlarda tayyorlanadi.

Yo‘l harakati qoidasini buzilishi haqida
tuzilgan 20___yil «___» _____dagi _____-sonli
bayonnomaga qo‘shimcha

Yo‘l – transport hodisasi natijasida shikastlangan transport vositalari:
1-transport vositasi_____
(rusumi, davlat raqam belgisi, ro‘yxatga olingan DYHXX organi)

_____
(transport vositasining shikastlangan joylari)
_____
_____

2-transport vositasi_____
(rusumi, davlat raqam belgisi, ro‘yxatga olingan DYHXX organi)

_____
(transport vositasining shikastlangan joylari)
_____
_____

Haydovchilar haqida ma’lumot:
1-haydovchi_____
(familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, telefoni)

_____
_____
_____
(haydovchilik guvohnomasining toifasi, seriyasi, raqami)

2-haydovchi_____
(familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, telefoni)

_____
_____
_____
(haydovchilik guvohnomasining toifasi, seriyasi, raqami)

QMMB: 10/26/3969/1107-son
06.11.2026-y.

Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga
7-ILOVA

_____
sug‘urta tashkiloti

20___ yil «___»_____

TRANSPORT VOSITALARI ShIKASTLANGANLIGI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOTNOMA

_____
(Ichki ishlar organi, DYHXX bo‘lim (bo‘linmasi) nomi)

xabar qiladi 20___ yil «___» _____ soat _____ min.o‘tganda____

_____
(yo‘l-transport hodisasi ro‘y bergan joyi va vaqti)

yo‘l-transport hodisasi sodir etildi _____

_____
(YTH turi: to‘qnashish, ag‘darilish, piyodani urib ketish, to‘siqni urib ketish, transport vositasini urib ketish, hayvonlarni urib ketish va boshqa hodisalar)

Yo‘l-transport hodisasida qatnashdilar:

1. Transport vositasining rusumi_____davlat raqam belgisi_____

_____
(egasining familiyasi, ismi, otasining ismi)

_____
(tashkilotning nomi va manzili)

haydovchi_____
(hushyor yoki mast holda)

bo‘lgan, haydovchilik guvohnomasida shu toifasi _____
(bor yoki yo‘q)

2. Transport vositasining rusumi_____davlat raqam belgisi_____

_____
(egasining familiyasi, ismi, otasining ismi)

_____
(tashkilotning nomi va manzili)

haydovchi_____
(hushyor yoki mast holda)

bo‘lgan, haydovchilik guvohnomasida shu toifasi _____
(bor yoki yo‘q)

Transport vositasini tashqi ko‘rinishi tekshirilgan vaqtda quyidagi shikastlanish aniqlandi:

_____
_____
_____.

Yo‘l-transport hodisasi_____
_____
_____
_____.
(agar aybdor shaxs aniqlanmagan bo‘lsa ko‘rsatiladi, aniqlangan taqdirda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi chiqargan qaror yoki ma’muriy ishning tartib raqami va vaqti ko‘rsatiladi)

_____
(Ichki ishlar organining (DYHXX) nomi)

_____
_____
(boshlig‘i (surishtiruvchi)

_____
(familiyasi, ismi, otasining ismi)

_____
(imzo)

M.O‘.

QMMB: 10/26/3969/1107-son
06.11.2026-y.

Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga
8-ILOVA

1. *Elektron ma'muriy bayonnoma seriya va raqami:*

Ma’muriy ogohlantirish qo‘llash to‘g‘risida qaror

2. Seriya ☐☐☐ 3. Raqam ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐ 4. Qaror chiqarilgan sanasi __/__/____ (kun, oy, yil) 5. Vaqti __:__ 7.

6. Qaror chiqargan viloyat, shahar/tuman nomi _____

QAROR ChIQARGAN ORGAN (MANSABDOR SHAXS)

Vakolatli organ ramzi

8. Organ _____ 9. Jeton yoki guvohnoma (seriyasi, raqami) _____ 10. Qaror chiqargan shaxsning imzosi *Elektron imzo*

12. F.I.O ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐ 13. Lavozimi _____ 14. Unvoni _____ 11. Sana __/__/____ (kun,oy,yil)

MA’MURIY HUQUQBUZARLIK SODIR ETGAN SHAXS

shaxsga oid ma’lumotlar, multibiometrik taqqoslash orqali identifikatsiya qilingan

Sh-J dagi fuqarosi fotosurati

15. F.I.O ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐

16. Tug‘ilgan sana __/__/____ (kun, oy, yil)

17. Tug‘ilgan joyi

18. Hujjatning seriya va raqami __/_____ 19. Millati _____ 20. Fuqaroligi _____

21. Turar joyi _____

22. Ish joyi, mashg‘ulot turi, lavozimi _____

23. Sug‘urta polisi (seriyasi, raqami, amal qilish muddati) _____

24. Mastlik holati: _____

25. Transport vositasi haqida ma’lumot (rusumi, davlat raqami belgisi, turi, rangi) _____

26. Shaxsga oid qo‘shimcha ma’lumotlar

27. Avval ma’muriy javobgarlikka tortilgani haqida ma’lumotlar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MJTKNING 24[1], 269[1], 304, 305, 306, 307 HAMDA 309, 311-MODDALARIGA ASOSLANGAN HOLDA QAROR

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining

28. Modda ____ 29. Prim ____ 30. Qism ____ 31. Qo‘shimcha modda _____

32. _____ qoidalarining _____ band(lar)i buzildi

Ma’muriy jazoning qo‘llanilishi 33. ☐ 24[1] **modda**

34. *Holat yuzasidan olingan fotosurat* *Holat yuzasidan olingan fotosurat*

MA’MURIY HUQUQBUZARLIKNI SODIR ETGAN SHAXS UCHUN TAYINLANGAN JAZO CHORASI

35. **Ma’muriy ogohlantirish berildi.**

Ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni oldim

36. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning imzosi *Elektron imzo*

37. ☐ SMS 39. ☐ **Men roziman** 42. Sana __/__/____ (kun, oy,yil)

38. ☐ **Elektron** 40. ☐ **Rozi emasman**

41. ☐ **Advokat xizmatidan foydalandi**

43. **QAROR ChIQARGAN ORGAN**

44. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxs _____ 45. Tug‘ilgan sana __/__/____ (kun, oy, yil)

46. Huquqbuzarning yashash manzili _____

47. Seriya ☐☐☐ 48. Raqam ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐

49. Yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun MJtKning ____ -moddasi ____ qismiga muvofiq

Ma’muriy ogohlantirish
qo‘llanildi

50. Qaror chiqargan shaxsning imzosi *Elektron imzo*

51. Sana __/__/____ (kun,oy,yil)

QMMB: 10/26/3969/1107-son
06.11.2026-y.

Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga
9-ILOVA

1. *Elektron ma’muriy bayonnoma seriya va raqami:* ☐☐☐ ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐

Ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risida qaror

2. Seriya ☐☐☐ 3. Raqam ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐ 4. Qarol chiqarilgan zanasi __/__/____ (kun, oy, yil) 5. Vaqti __:__ 7.

6. Qaror chiqargan viloyat, shahar/tuman nomi _____

QARORCHIQARGAN ORGAN (MANSABDOR SHAXS)

Vakolatli organ ramzi

8. Organ _____ 9. Jeton yoki guvohnoma (seriyasi, raqami) _____ 10. Qaror chiqargan shaxsning imzosi *Elektron imzo*

12. F.I.O ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐ 13. Lavozimi _____ 14. Unvoni _____ 11. Sana __/__/____ (kun,oy,yil)

MA’MURIY HUQUQBUZARLIK SODIR ETGAN SHAXS

shaxsga oid ma’lumotlar, multibiometrik taqqoslash orqali identifikatsiya qilingan

Sh-1 dagi fuqaroni fotosurati

15. F.I.O ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐

16. Tug‘ilgan sana __/__/____ (kun, oy, yil)

17. Tug‘ilgan joyi

18. Hujjatning seriya va raqami ___/_____ 19. Millati _____ 20. Fuqaroligi _____

21. Turar joyi _____

22. Ish joyi, mashg‘ulot turi, lavozimi _____

23. Sug‘urta polisi (seriyasi, raqami, amal qilish muddati) _____

24. Mastlik holati: _____

25. Transport vositasi haqida ma’lumot (rusumi, davlat raqami belgisi, turi, rangi) _____

26. Shaxsga oid qo‘shimcha ma’lumotlar

27. Avval ma’muriy javobgarlikka tortilgani haqida ma’lumotlar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MJTKNING 269[1], 304, 305, 306, 307 HAMDA 309, 311-MODDALARIGA ASOSLANGAN HOLDA QAROR

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining

28. Modda ____ 29. Prim ____ 30. Qism ____ 31. Qo‘shimcha modda _____

32. _____ qoidalarining _____ band(lar)i buzildi

Ma’muriy jazoning qo‘llanilishi 33. ☐ 33-modda 34. ☐ 34-modda

35. *Holat yuzasidan olingan fotosurat* *Holat yuzasidan olingan fotosurat*

MA’MURIY HUQUQBUZARLIKNI SODIR ETGAN SHAXS UCHUN TAYINLANGAN JAZO CHORASI

36. Jarima miqdori (so‘m) XXX.XXX .XX (miqdori yozuv ko‘rinishida)

37. Zarar miqdori (so‘m) XXX.XXX .XX (miqdori yozuv ko‘rinishida)

38. Qo‘shimcha jazo chorasi _____

Ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni oldim

39. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning imzosi *Elektron imzo*

40. ☐ SMS 42. ☐ Men roriman 45. Sana

41. ☐ Pochta 43. ☐ Rozi emasman __/__/____ (kun, oy,yil)

44. ☐ Advokat xizmatidan foydalandi

Huquq va majburiyatlaringiz

Jarima solish to‘g‘risidagi qarorni ijro etishning soddalashtirilgan tartibi. O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 332[3]-moddasiga muvofiq, huquqbuzar unga jarima solish to‘g‘risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab 15 (o‘n besh) kun ichida jarima miqdorining 50 (ellik) foizini yoki o‘ttiz kun ichida jarima miqdorining 70 (yetmish) foizini ixtiyoriy ravishda to‘lagan taqdirda, u jarimaning qolgan qismini to‘lashdan ozod qilinadi, bundan tashqa moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mavjudligi.

Mazkur elektron qaror ustidan o‘tkazilgan bo‘lsa, tuman (shahar) jamoy ishlar bo‘yicha sud organlariga qaror nusxasini olgan kunigizdan boshlab 10 (o‘n) kun ichida shikoyat yoki protest keltirishingiz mumkin. Shikoyat ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan qaror qabul qilingan organ (mansabdor shaxs) orqali yoki bevosita shikoyat yo‘llangan sudga yuborildi.

XABARNOMA

To‘lov raqami ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐

Hazinachi

Organ nomi _____

Bank nomi _____ Bank kodi XXXXX STIR XXX XXX XXX

Oluvchining hisob raqami XXXX XXXX XXXX XXXX XXXX G‘azna hisob raqami XXXX XXXX XXXX XXXX XXXX

To‘lovchining F.I.O ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐ Tug‘ilgan sana __/__/____ (kun, oy, yil)

To‘lovchining yashash manzili _____ STIR XXX XXX XXX

To‘lov nomi **Ma’muriy huquqbuzarlik uchun jarima** Qaror sanasi __/__/____ (kun, oy, yil) Pul miqdori (so‘m) XXX XXX . XX (miqdori yozuv ko‘rinishida)

To‘lov nomi O‘z.Res.MJtKning XXX[X]-moddasi asosida 50 % Sanagacha __/__/____ (kun, oy, yil) Pul miqdori (so‘m) XXX XXX . XX (miqdori yozuv ko‘rinishida)

O‘z.Res.MJtKning XXX[X]-moddasi asosida 70 % Sanagacha __/__/____ (kun, oy, yil) Pul miqdori (so‘m) XXX XXX . XX (miqdori yozuv ko‘rinishida)

PATTA

To‘lov raqami ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐

Hazinachi

Organ nomi _____

Bank nomi _____ Bank kodi XXXXX STIR XXX XXX XXX

Oluvchining hisob raqami XXXX XXXX XXXX XXXX XXXX G‘azna hisob raqami XXXX XXXX XXXX XXXX XXXX

To‘lovchining F.I.O ☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐☐ Tug‘ilgan sana __/__/____ (kun, oy, yil)

To‘lovchining yashash manzili _____ STIR XXX XXX XXX

To‘lov nomi **Ma’muriy huquqbuzarlik uchun jarima** Qaror sanasi __/__/____ (kun, oy, yil) Pul miqdori (so‘m) XXX XXX . XX (miqdori yozuv ko‘rinishida)

To‘lov nomi O‘z.Res.MJtKning XXX[X]-moddasi asosida 50 % Sanagacha __/__/____ (kun, oy, yil) Pul miqdori (so‘m) XXX XXX . XX (miqdori yozuv ko‘rinishida)

O‘z.Res.MJtKning XXX[X]-moddasi asosida 70 % Sanagacha __/__/____ (kun, oy, yil) Pul miqdori (so‘m) XXX XXX . XX (miqdori yozuv ko‘rinishida)

QMMB: 10/26/3969/1107-son
06.11.2026-y.

Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga
10-ILOVA

_____
_____
_____

T A Q D I M N O M A

Men, _____
(unvoni, lavozimi)

_____
(familiyasi, ismi, otasining ismi)

Fuqaro, _____ yilda tug‘ilgan, _____da

istiqomat qiluvchi _____ga
(familiyasi, ismi, oatisning ismi)

nisbatan rasmiylashtirilgan ma’muriy ish hujjatlari bilan tanishib, keltirilgan,

_____

_____

_____

sabablar va asoslarga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 308^1-moddasiga asoslanib, ushbu fuqaroga MJtKning

21-moddasi / 33-moddasini
(tagiga chiziladi)

qo‘llash masalasini ko‘rib chiqishingizni so‘rayman.

Ilova: ___ varaqda.

_____ viloyat IIB JXX YHXB
Ma’muriy amaliyot markazi
xodimi _____ _____
(imzo) (unvoni, familiyasi, ismi, otasining ismi)

«___» _____ 20__ yil M.O‘.

Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga
11-ILOVA

ST 00000000000 — raqamli jarima solish to‘g‘risidagi qaror

_____ _____
(qaror chiqarilgan sana) (qaror chiqarilgan joy)

Men,_____

(qarorni chiqargan organ nomi, mansabdor shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi, otasining ismi)

maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo‘l harakati qoidalarining buzilishi tafsilotlarini ko‘rib chiqib, quyidagilarni

ANIQLADIM:

20__ yil _____ kuni soat ____da «_____» ko‘chalari (chorrahasi)da, _____da ro‘yxatda turuvchi fuqaro / yuridik shaxs _____ga tegishli bo‘lgan _____ rusumli _____ davlat raqam belgili transport vositasida haydovchi _____
(huquqbuzarlikning tafsiloti), bu bilan O‘zbekiston Respublikasi MJtKning ___-moddasi _____ qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan.

ST 00000000000

Transport vositasining mulkdori
F.I.O
Yashash manzili

O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 17[1], 248, 304, 307 va 309[1]-moddalariga asoslangan holda

QAROR QILAMAN:

_____rusumli _____ davlat raqam belgili transport vositasi mulkdori _____ga O‘zbekiston Respublikasi MJtKning ___-moddasi ___ qismiga asosan _____ (_____so‘zlarda yoziladi) miqdorida jarima belgilansin.

Davlat raqam belgisi tushirilgan transport vositasi fotosurati	Qoidabuzarlik sodir etilgan vaqtdagi transport vositasi fotosurati	Hodisa videolavhasini ko‘rish manzili QR–kod *(qonunchilik hujjatlariga muvofiq video taqdim qilinmaydigan hollar bundan mustasno.)*

(mazkur qaror ustidan e’tirozingiz bo‘lsa, _____telefon raqamiga soat 09:00 dan 18:00 gacha murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz.)

Huquq va majburiyatlaringiz:

Tayinlangan jarimani qaror chiqarilgan kundan boshlab oltmish (60) kundan kechiktirmay, ushbu qaror xususida shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda esa, shikoyat yoki protest qanoatlantirilmaganligi to‘g‘risida xabar berilgan kundan e’tiboran o‘ttiz (30) kundan kechiktirmay to‘lashingiz lozim.

Mazkur qaror chiqarilgan kundan e’tiboran oltmish (60) kun o‘tgach jarima to‘lanmagan taqdirda transport vositangiz qarorning ijrosi yuzasidan ish yuritish tugaguniga qadar ushlab turiladi.

Mazkur qaror ustidan yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga yoki jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudiga uning nusxasini olgan kuningizdan boshlab (10) o‘n kun ichida shikoyat berishingiz mumkin. Shikoyat ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan qaror qabul qilgan organ (mansabdor shaxs) orqali yoki bevosita shikoyat yo‘llangan sudga yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 332^1-moddasiga muvofiq huquqbuzar jarima solish to‘g‘risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab o‘n besh kun ichida jarima miqdorining ellik foizini yoki o‘ttiz kun ichida jarima miqdorining yetmish foizini ixtiyoriy ravishda to‘lagan taqdirda, u jarimaning qolgan qismini to‘lashdan ozod qilinadi, quyidagi hollar bundan mustasno:

O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 131, 136 va 140-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar sodir etilganda;

jarima solish to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat qilinganda yoki protest bildirilganda;

xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilganda.

QMMB: 10/26/3969/1107-son
06.11.2026-y.

Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga
doir ma’muriy ishlarni rasmiylashtirish
va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi
yo‘riqnomaga
12-ILOVA

Shikoyatni ko‘rib chiqish yakunlari
bo‘yicha hal qiluv
Q A R O R I

20__ - yil «__» -_____ _____

Men,_____
(lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi)

_____

_____
(ishtirok etayotgan shaxslar)

Yo‘l harakati qoidasi buzilganligi to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida tushgan shikoyatni ko‘rib chiqib,

A N I Q L A D I M

_____
(ishni ko‘rib chiqishda aniqlangan holatlarni qayd qilish, qayerda, qachon, nega, kim tomonidan ma’muriy

_____
jazo berilgan, mansabdor shaxsning qonunchilikni o‘z huquqi doirasida to‘g‘ri qo‘llashi, qabul qilingan qarorni

_____
bekor qilish yoki o‘zgartirish uchun dalillar va hakozo)

Qayd qilinganlarga asoslanib _____
_____

MJtKning ___ - moddasi _____ qismiga amal qilib,

Q A R O R Q I L D I M

_____

_____

_____

Ushbu hal qiluv qarori nusxasi_____

_____

_____ ga yuborilsin.

20__ - yil «__» -_____ _____
(imzo)

M.O‘.

QMMB: 10/26/3969/1107-son
06.11.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi
ichki ishlar vazirining
2026-yil 4-sentabrdagi
502-son buyrug‘iga
2-ILOVA

O‘z kuchini yo‘qotgan deb topilayotgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar
RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2011-yil 31-maydagi 68-son “Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2240, 2011-yil 5-iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 27-son, 286-modda).

2. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2015-yil 3-sentabrdagi 155-son “Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2240-1, 2015-yil 7-oktabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 40-son, 521-modda).

3. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2017-yil 26-iyuldagi 159-son “Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2240-2, 2017-yil 8-avgust) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2017-y., 32-son, 822-modda).

4. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2018-yil 13-fevraldagi 34-son “Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2240-3, 2018-yil 1-mart) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.03.2018-y., 10/18/2240-3/0836-son).

5. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2020-yil 15-iyundagi 195-son “Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2240-4, 2020-yil 15-iyul) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.07.2020-y., 10/20/2240-4/1070-son).

6. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2020-yil 25-dekabrdagi 338-son “Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2240-5, 2021-yil 6-yanvar) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.01.2021-y., 10/21/2240-5/1702-son).

7. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2022-yil 25-avgustdagi 326-son “Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2240-6, 2022-yil 13-oktabr) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.10.2022-y., 10/22/2240-6/0930-son).

8. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2023-yil 12-iyuldagi 361-son “Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2240-7, 2023-yil 14-avgust) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.08.2023-y., 10/23/2240-7/0605-son).

9. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2024-yil 25-iyundagi 186-son “Yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning 58-bandiga o‘zgartirish kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2240-8, 2024-yil 12-iyul) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y., 10/24/2240-8/0503-son).

10. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagi 15-mh-son “O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 3313, 2021-yil 28-iyul) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son) ilovaning 136-bandi.